

**“KLOSTBOVAK-8” VAKSINASINING KLOSTRIDIOZLAR MAXSUS  
PROFILAKTICASIDAGI SAMARADORLIGI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7538475>



**ELSEVIER**



**Qambarov Abdurauf Abdurasulovich**

SamDVMCHBU - dotsent

**Allazov Anvar Saloxovich**

SamDVMCHBU -assistant

**Islomova Ozoda Payzullayevna**

SamDVMCHBU-assistant

**Hakimov Shorasul**

VITI, tayanch doktoranti



Received: 14-01-2023

Accepted: 15-01-2023

Published: 22-01-2023

**Abstract:** Ilmiy tadqiqot ishida qo'ychilik fermer xo'jaliklarida "Klostbovak-8" assotsiatsiyalangan vaksinasining klostridiozlar maxsus profilaktikasida, laboratoriya hayvonlari va tabiiy o'choqlarda samaradorligi o'rganilgan. Bu vaksina mamlakatimiz veterinariya amaliyotida ilk bor qo'llanishi

**Keywords:** Klostridiya, klostridiozlar, spora, antigen, antitelo, assotsiatsiyalangan, monovalentli, polivalentli, anatoksin, antitoksin, toksigenlik, virulentlik, patogenlik, kontaminatsiya, sinergizm, amplifikatsiya, zardob, plazma, gemorragiya, nekroz, nekrobioz, intoksikatsiya, ekzotoksin, endotoksin.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 14-01-2023

Accepted: 15-01-2023

Published: 22-01-2023

**Abstract:** В научно исследовательской работе изучена экономическая эффективность применение "Клостбовак-8" неблагополучных фермерских хозяйствах по клостридиозам. Вакцина "Клостбовак-8" впервые применялся для специфической профилактики против клостридиозов.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 14-01-2023

Accepted: 15-01-2023

Published: 22-01-2023

**Abstract:** In the scientific research work, the economic efficiency of the use of "Klostbovak-8" on clostridial infections on unfavorable farms was studied. The vaccine "Klostbovak-8" was first used for specific prophylaxis against clostridial infections.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Mavzuning dolzarbligi:** Klostridiozlar dunyoda keng tarqalgan, qo'zg'atuvchisi obligat anaerob batsilla, infeksiyon kasallik qoramolchilik va qo'ychilik iqtisodiyotiga salmoqli iqtisodiy zarar keltiradi, tashqi muhitni, ekologiyani ifloslantiradi. Kasallik deyarlik 90-100% o'lim bilan yakun topadi.

Tajriba o'tkazilgan ob'ekt-Samarqand viloyati Payariq tumanidagi qo'ychilik fermer xo'jaliklari va xususiy sektor, Jizzax viloyati Forish, G'allaorol, Baxmal tumani qo'ychilik fermer xo'jaliklari va xususiy sektor qo'ylarida-tabiiy o'choqli zonalar epizootic xaritadan olinib "Klostbovak-8" vaksinasi bilan yo'riqnomaga qat'iy amal qilib 2-marta emlash o'tkazildi, interval 26-30 kun. Birorta ham vaksinatsiyadan keyingi asorat kuzatilmadi.

Barcha klostridiyalarning sporalarini o'ta chidamli bo'lib, tashqi muhitda uzoq yillar faol saqlanadi, tabiiy o'choqlikning bardavomligiga ham sabab shu. Klostridiyalarning tashqi muhitda ham namlik, harorat va boshqa mikroklimalar optimal, bo'lganda ko'payadi. Sporalar bir necha daqiqaga qaynatilsa faolsizlanadi. Dezinfektantlar 0,5% xloramin, 6%-vodorod peroksidi, 0,5% formalin 30-60 daqiqada bakteriotsid ta'sir etadi. Sporali shakllariga ham shu dezinfektantlar yuqori konsentratsiyada, uzoq ekspozitsiyada ishlatiladi.

Klostridiyalarning muhtasari ma'lumotnomasi:

15. Barcha turlar ham maxsus toksin ishlab chiqaradi.
16. Har bir tur alohida ferment ajratadi.
17. Barcha toksinlar to'qima va hujayralarda o'zgarishlar, nekroz, nekrobioz, SPT-ko'rsata oladi.
18. Hujayralarda metabolism va katabolizm buzadi.
19. Og'ir intoksikatsiya hosil qiladi, yurak falajiga, o'limga sabab bo'ladi.
20. Ularga xos xususiyat doimo assotsiatsiyaga keladi, bu esa patologik jarayonning bir necha marta oshishini ta'minlaydi.
21. O'ta o'tkir, o'tkir va shiddatli kechishi, og'ir intoksikatsiyasi tufayli o'lim bilan yakunlanishi.

#### **Klostridiozlar diagnostikasi.**

Klostridiozlarga diagnoz kompleks tekshiruvlar natijasiga tayanib qo'yiladi: epizootologik ma'lumotlar tahlili, klinik belgilari bo'yicha xulosa, patomorfologik o'zgarish tahlili, bakteriologik laboratoriya tekshiruvlari taxliliga asoslanib qo'yiladi.

Infektologiyaning oltin qoidasi bu istalgan infeksiya kasalikka qo'yilgan diagnoz laboratoriya tekshiruv mavjud bo'lsa haqiqiy deb hisoblanadi, shu sabab klostridiozlarda ham bakteriologik tekshiruv o'tkazilishi shart:

- Surtma tayyorlash, bo'yash, mikroskopiya qilish, qo'zg'atuvchini topish;
- Ozuqa muhitiga ekib kulturasini o'stirish; sof kulturasini ajratish;
- Kulturaning morfofiziologik, kimyoviy, tinktorial, patogenlik, virulentlik xususiyatlarini aniqlash;
- Lentogen, mezogen, velogen shtammlarini topish;
- Shtamlar amplifikatsiyasini aniqlash;
- Biosinovlar o'tkazish;
- Zamonaviy serologik test tekshiruvlari: RNK, DNK, IFA-o'tkazish mana shularga asoslanib diagnoz qo'yiladi.

"Klostbovak-8"-klostridiozlarga qarshi polivalentli assotsiyalangan vaksina Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan, veterinariya amaliyotida qoramollar va qo'ylar klostridiozlari maxsus profilaktikasida qo'llash uchun ruxsat etilgan. Bu vaksina bilan 2-marta emlanganda, interval 26-30 kun, Cl.perfregens A,B,C,D-

tiplari, Cl.chauvoei, Cl.tetani, Cl.oedematiens, Cl.septicum-anaerob infeksiyon kasalliklari maxsus profilaktikasi uchun ishlatiladi, immunitet 12-oy davom etadi.

Vaksinaning immunogenligi har bir komponent uchun alohida tekshirib o'rganildi, dozaning optimumligi yo'riqnoma bilan taqqoslandi, immunitet paydo bo'lishi va davomiyligi aniqlandi. Komponentlar emlangan hayvonlarning 80-100% ti tirik qolishini ta'minlay oladigan miqdori aniqlandi va u miqdor vaktsina tarkibida muxayyo qilindi. Antitoksik antitelolar titri yuqori bo'lishini ta'min etildi. Polivalentli vaktsinalar immunogenligi, monovalentli vaktsinalar immunogenligi bilan taqqoslanib, antigenlar interferensiyasi yo'qligi isbotlandi, ba'zi holatlarda sinergetik fenomen kuzatildi, masalan Cl.perfringens A,B,C,D tiplari orasida.

Yuqoridagi usulda va texnologiyada tayyorlangan klostridiyalarga qarshi polivalentli assotsiyalangan vaktsina ko'p komponentli bo'lib bakterial va antitoksik antigenlar mutanosibligi, optimum muvozanati ta'minlangan vaktsinatsiyadan keyin, mustahkam, barqaror immunitet hosil qiladi. Klinik belgilari yaqqol namoyon bo'ladigan klostridiozlar: yomon sifatli shish, qorason, qotma, anaerob enteroteksemiya, bradzot, nekrotik gepatit, nekrotik enterit-kabi kasalliklar maxsus profilaktikasini samarali ta'minlay oldi.

**Vaksinatsiyaning ("Klostbovak-8) ustunligi quyidagilar:**

- Barqaror, bardavom stabillik;
- Faol antigenlik va immunogenlik;
- Mustahkam immunitet hosil qilish, 12-oy davom etishi;
- Kolostral immunitetning barqarorligi;

**Xulosalar:**Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan "klostbovak-8" vaktsinasi, polivalentli, ko'p komponentli, klostridiozlar maxsus profilaktikasi uchun, ikki marta emlash, interval 26-30 kun, nekrotik gepatit, yomon sifatli shish, qorason, qotma, bradzot, anaerob dezinteriya, nekrotik enterit kasalliklari maxsus profilaktikasi uchun ishlatildi, mustahkam immunitet hosil bo'ldi, immunitet 12-oy davom etdi, emlashdan keyin birorta salbiy asorat kuzatilmadi.

"Klostbovak-8" vaktsinasi komponentlar interferensiyasi yo'qligi isbotlandi, antigenlar qo'shilganda Cl.perfringens A,B,C,D-tiplari, Cl.novyi B-tipi, Cl.septicum, Cl.chauvoei, Cl.tetani-mutanosib miqdorda qo'shilganda sinergetik fenomen effektlari ta'minlandi.

"Klostbovak-8" vaktsinasi turli yoshdagi qo'ylarni 3 ml hatto 6 ml miqdorda emlanganda ham zararli ta'siri kuzatilmadi, immunogenligi, yuqori, emlangan hayvonlarda kamida 80-100% tirik qolishini ta'minladi, 18-oy saqlanganda ham stabiligi o'zgarmadi, bu ma'lumotlar eksperimental isbotlandi.

"Klostbovak-8" vaktsinasining yuqori titrlari kolostral immunitet hosil bo'lishini ta'minladi: a'lfa toksinga Cl.perfringens kamida 2,10 ME/ml, P-toksinga

Cl.perfringens 7,80 ME/ml B-tip 3,10 ME/ml, Cl.tetani 1,50 ME/ml, yosh buzoq va qo'zilar neonatal yoshda ikki marta emlangan sigir va qo'ylar suti berilganda.

Amaliyotda qo'llash uchun "Klostbovak-8" vaksinasi antigenlik faolligini miqdoriy baholash klostridialarning o'lim dozasini ishlatganda ham 20DEM/ml-a,o,e toksinlar C.perfringens va C.novyi -200 DAM/ml, C.tetani-80-100% tirik qolishi kuzatildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salimov X.S., Qambarov A.A. Epizootologiya darslik 2016.
2. Salimov X.S., Qambarov A.A., Salimov I.X. Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar. Darslik-2021.
3. Salimov X.S., Qambarov A.A., Hakimov Sh "Klostridiozlarga qarshi kurashish chora tadbirlari". Resp.konf. II-t. 2016. 352-357 b.
4. Salimov X.S., Qambarov A.A., Hakimov Sh. "Bradzot kasalligi qo'zg'atuvchisining morfologik, kimyoviy, tinktorial, kultural, patogenlik, virulentlik xususiyatlari".
5. Salimov X.S., Qambarov A.A., Hakimov SH. "Qo'ylarning infeksiyon enteroteksemiya kasalligi epizootologiya" Resp.konf. II-t. 2016. 314-318 b.
6. Бессарабов Б.Ф. и др. Инфекц. Бол.ж.ых. М.Колос. 2010
7. Самуйленко А.Я. и др. Инфекц. патология ж.ых. I-II-III Т.2006, 2008, 2010.
8. Veterinary Epidemiology Third Edition. Michael Thrusfield. Blackwell Publishing This book is a gift from the people of the United states America 2007. To Morjory and Harriend, and in memory of David 595 p.